

“YAXSHILIK IZLAGAN BOLA” HIKOYASI.

Xasanova Shaxnozaxon Mamirjonovna

Sirdaryo viloyati Xovos tumani 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

boshlang‘ich 3-A sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu dars ishlanmada 3-sinf o‘quvchilari uchun “**Yaxshilik izlagan bola**” hikoyasini 4K modeli, interfaol usullar, tarqatmalar va ko‘rgazmali qurollar yordamida o‘qitish texnologiyasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yaxshilik, yomonlik, hikoya, innovatsion usullar, ko‘rgazma, tarqatma.

Dars maqsadi:

Ta’limiy: O‘quvchilarni “Yaxshilik izlagan bola” hikoyasi mavzusining mazmun-mohiyati bilan tanishtirish, ularda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish.

TK 2: *televizor va radio orqali berilib borilayotgan xabarlarni gapirib bera olishi.*

FK 1: *o‘rganilgan mavzular doirasida bayon qila oladi va bolalar yozuvchilari, ularning asarlari nomini yoza oladi.*

Tarbiyaviy: yaxshilik va ezgulik, shuningdek, yomonlikning inson hayotidagi ahamiyatini tushuntirish, insoniylik ruhida tarbiyalash.

TK 3: *shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish.*

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilaning og‘zaki nutqini o‘stirish, ziyraklik va jonkuyarlik fazilatlarini rivojlantirish.

FK 2: *o‘rganilgan hikoyalarning nomini mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi hamda o‘qituvchi yordamida ularga baho bera oladi.*


Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars metodi: „Start“, „Aql xaritasi“, „Shtрум“, „Bir daqiqa“, „Kayfiyat haqida axborot“, „Lug‘at bilan ishlaymiz“, „Hamkorlik ishi“, „Piramida“.


Dars jihozi: O‘tgan darsdagi rasmlar, multimediali ilova, televizor, tarqatmalar, slayd taqdimoti.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. O‘quvchilarni diqqatini jalb etish va sinfda psixologik iqlim yaratish maqsadida „Start“ metodidan foydalanamiz. Ushbu usul orqali o‘quvchilarda ijobiy energiya hosil bo‘ladi va birgalikda bajarish orqali butun sinf uyg‘unligiga erishiladi. Atigi 2 daqiqalik „Start“ metodi qolgan 43 daqiqalik darsni sifatini belgilab beradi. Masalan: dars shiori aytilib ham ushbu usulni bajarish mumkin.



O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi.



Har bir guruh ishtirokiga ko‘ra rag‘bat va jarima kartochkalari bilan rag‘batlantirilib boriladi. Dars so‘ngida rag‘batlar sanalib, eng ko‘p rag‘bat to‘plagan guruhdan „Aql xaritasi“ sohibiga aylanadi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash: O‘tilgan mavzu mustahkamlash bo‘lganligi uchun „Shtрум“ metodi orqali o‘tilgan mavzu so‘raladi. Bu usul ham

“Aqliy hujum”ning bir turi hisoblanadi. Faqat ushbu usul kreativ yondashuvni talab etadi hamda yangi avlod darsliklarini 4K modeli orqali o‘qitishda samara beradi. Bunda ham savollar ketma-ketlikda aytilib, javob tahlil qilinib, kamchiliklar tuzatilib ketiladi. Mazkur metod ham tezlikni, topqirlikni, ziyraklikni, e’tiborli bo‘lishni talab etadi.

- 1.”Qish qori bilan” she’ri nima haqida?
2. She’rda qish qanday nomlangan?
- 3.Nima uchun qor parchalari unga o‘xshatilgan?
4. .”Qish qori bilan” she’rida tevarak-atrof qanday tasvirlangan?....

Uyga vazifa sifatida she’rni ifodali o‘qish va qog‘ozdan turli qor parchalari yasash topshirilgan edi. Uyga vazifa tekshirib, rag‘atlantirilib olinadi.

III. Yangi mavzu bayoni: O‘qituvchi yangi darsni e’lon qiladi. Darslik bilan ish olib boriladi.

Rasmni izohlang. O‘ylab ko‘ring, qish faslida jonivorlarga qanday yordam berish mumkin?



“**Bir daqiqa**” didaktik o‘yini orqali rasm tahlil qilinadi. O‘quvchilar bir daqiqa ichida qish faslida jonivorlarga qanday yordam berish haqida guruh bo‘lib ketma-ketlikda aytadilar. Qaysi guruh ko‘p ma’lumot aytsa, shu guruh rag‘batlantiriladi. Shundan so‘ng,

hikoya ifodali o‘qish qoidalari asosida o‘qiladi. Bunda dastlab o‘qituvchi bir jumla o‘qiydi. Shundan so‘ng, kimning ismini aytsa davom ettirilaveradi.

Kechki ovqat mahali edi.

- Bolalar, qo‘lingizni yuving, dadangiz keldi, - dedi ona.

Ota uyga kirarkan, bolalarining peshonasidan o‘pdi:

- Ko‘cha biram sovuq, shamol ko‘z ochirgani qo‘ymayapti, - dedi paltosini yechayotib.

- Tapa qavatdagi qo‘shning mashinasi yo‘lda buzilib qolibdi. Rosa urundik, yurgizolmadik. Oxiri shatakka olib, tortib keldim. Katta yaxshilik qildingiz, deb qayta-qayta duo qildi.

O‘zim ham yengil tortdim.

Ular maza qilib ovqatlanishdi. Jamshid otasiga juda havas qildi.

- Dada, men ham yaxshilik qilgim kelyapti, -dedi dadasiga yaqinroq surilib.

- Xarxasha qilmay, odobli bo‘lsang, yaxshilik qilgan bo‘lasan. Ertaga buvingni ko‘rishga boramiz. Bu ham yaxshilik, - tushuntirdi dadasi.

Jamshid xursand bo‘lib ketdi. Ertalab uyg‘onganida oyisi buvisi uchun somsa yopib qo‘yibdi. Somsalarni dasturxonga o‘rab olishdi. Ko‘chaga chiqishganida qor maydalab yog‘ardi. Bekatga yaqinlashganlarida laylakqorga ayladi. Jamshid bekat yonida oppoq, chiroyli mushukni ko‘rib qoldi.

-Oyi, anavi mushukchani qarang. Qorni och, shekilli, biror narsa beraylik, - dedi. O‘g‘lining ko‘zlari javdirab turardi. Onasi darrov dasturxonga o‘ralgan somsalardan bitta oldi-da, o‘g‘liga uzatdi. Jamshid judayam quvondi. Somsani chetroq joyga qo‘ydi, mushukcha boshini ko‘ratmay, somsani yeya boshladi. Har zamonda u momiq dumchasini likillatib qo‘yardi. Shu payt bekatga avtobus kelib to‘xtadi. Unga chiqib olgan Jamshid ko‘zdan yo‘qolguncha mushukchaga termilib qoldi. Sovuq havo endi unga ta’sir qilmayotgan edi. (“Yaxshilik izlagan bola” kitobidan olingan)

Hikoya o‘qib bo‘lingach, dam olish daqiqasi quyidagicha tashkil etiladi.


Dam olish daqiqasi: “Kayfiyat haqida axborot” metodi orqali tashkil etiladi.

“Kayfiyat haqida axborot” metodi

Ob-havo, hayvonlar, qushlar yoki o‘simliklar kabi mavzularga murojaat qilib, o‘zingizni qanday his qilayotganingizni bildiring, masalan: "O‘tgan *kun* - juda bulutli edi, ammo endi quyosh yorisha boshladi". "Men o‘zimni toshbaqa kabi his qilayapman, sekin asta harakatlanayotgan" "Men mashg‘ulotga kirganimda, kichkina va ko‘zga tashlanmaydigan chumchuq edim, lekin endi o‘zimni burgutdek his qilayapman" va hokazo.



Yangi mavzuni mustahkamlash: yangi mavzuni mustahkamlashda dastlab lug‘at bilan ishlaymiz. O‘quvchilar uchun notanish so‘zlar aytilgach, savol-javob tashkil etiladi.



“Yaxshilik” guruhiga:

1. Jamshidning dadasi qanday voqea haqida gapirib berdi?
2. Nega Jamshid dadasiga nega havas bilan qaradi?
3. Hikoyadan o‘zingiz uchun qanday xulosa chiqardingiz?

“Ezgulik” guruhiga:

1. Siz uning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?
2. Jamshidning qilgan ishiga qanday munosabat bildirasiz?
3. Hikoyadan o‘zingiz uchun qanday xulosa chiqardingiz?

Harflarning o‘rnini to‘g‘ri joylashtirib, maqolni o‘qing. Ushbu topshiriqni **“Hamkorlik ishi”** metodi orqali bajaramiz. Bunda har bir guruh maqolni yozma topadi. Birinchi va to‘g‘ri bajargan guruh rag‘batlantiriladi.


shiQ liqiginish maqilsa,

zoY liyozgini lasqim

shingQin rbi niku qosal qro‘q

Maqollarning mazmuni izohlanadi.

“Piramida” usuli. Bunda darslikdagi quyidagi topshiriq bajariladi. Har bir qatorda bittadan yangi so‘z qo‘shib, gap tuziladi.

**Darsga yakun yasash va baholash:**

Jamshidning qilgan yaxshiligini hikoyadan topib o‘qish va bir nechta reja tuzish, shu rejalarni bir so‘z bilan ta’riflash orqali mavzu xulosalanadi.

Guruhlarining to‘plagan rag‘batlari sanalib, g‘olib guruhga “**Aql xaritasi**” topshiriladi.

O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

Uyga vazifa: Hikoyaning mazmunini reja asosida gapirib berish. ota-onangiz bilan birga qishda jonivorlarga qanday ko‘mak berishingiz mumkinligi haqida kichik taqdimot tayyorlash.